PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ERTAKLAR YORDAMIDA BOLALARNING BOG‘LANISHLI NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Rahmonqulova Zeboxon Zokirjon qizi

Qo‘qon universiteti, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1/23 guruh talabasi.

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20098818

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqini shakillantirishda ertaklarning ahamiyati yoritiladi. Ertak matnlar orqali bolalarning so‘z boyligini mustaqil fikrlashni, voqealarni izchil bayon eta olish ko‘nikmalar rivojlanishi haqida yozib boriladi.

Kalit so‘zlar: Ertaklar, bog‘lanishli nutq, maktabgacha ta’lim, nutq rivoji, pedagogik metod.

Kirish

Bog‘lanishli nutq — bu fikrning mantiqan izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri va tinglovchi uchun tushunarli tarzda ifodalangan nutq shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni shakllantirish ularning muloqot madaniyati, ijodiy fikrlashi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda ertaklar — nutqni rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ertaklar bolalar hayot tajribasiga yaqin, qiziqarli va mavzularni izchil bayon etishga yordam beradi.

Bog‘lanishli nutq bolaning tafakkuri bilan uzviy bog‘liq. Tafakkur va nutq asarida L.S.Vigotskiy nutq va tafakkur bir-birini rivojlantirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bola avval ijtimoiy muloqot orqali nutqni o‘zlashtiradi, keyin esa ichki nutq shakillantiradi. (L.S.Vigotskiy “Tafakkur va nutq” 34-39-betlar (Nutq va tafakkur munosabati) va 92-101-betlar (bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari))

Demak ertaklarni jamoaviy tinglash va muhokama qilish nutq rivojining tabiiy mexanizimini faollashtiradi.

Ertaklarning pedagogik ahamiyati

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy va tafakkur rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, 3-7 yosh oralig‘ida nutq faol rivojlanadi va bog‘lanishli nutq shakllanishi maktab ta’limiga tayorgarlikning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hujjatida nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari alohida rivojlanish sohasi sifatida belgilangan (18-22-betlar).

Bog‘lanishli nutq rivojlanishida badiy adabiyot, xususan, ertaklar samarali vosita hisoblanadi.

Ertaklarning pedagogik ahamiyati shundan iboratki ertaklar bolalarning nutq faoliyatini rivojlantiradigan badiiy janrdir. Ular lingvistik, mantiqiy va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Masalan:

Til boyligini oshiradi: Ertaklarda turli so‘zlar, ifodalar va jumlalar mavjud bo‘lib, bolalar ularni eshitish orqali yangi leksik birliklarga ega bo‘ladi.

Grammatik tuzilishni o‘rgatadi: Ertak matnlari tilning grammatik tuzilishini bolaga his ettiradi — bu esa bog‘lanishli nutq uchun zarur.

Tinglab tushunish ko‘nikmasini oshiradi: Bolalar ertakni tinglab, mantiqan izchil fikr yuritishni o‘rganadi.

Bog‘lanishli nutq tushunchasi va uning tarkibi

Bog‘lanishli nutq — bu fikrlarni izchil, bir-biriga mantiqan ulangan jumlalar orqali ifodalashdir. U quyidagi elementlardan iborat:

Leksik bog‘lanish: so‘zlar orasidagi semantik munosabat.

Sintaktik bog‘lanish: grammatik tuzilish asosida izchil jumla yasalishi.

Mantiqiy bog‘lanish: fikrlarning izchil ravishda ketma-ketligidir.

Ertaklar bu elementlarni bola nutqida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bog‘lanishli nutq tushunchasi va uning ahamiyati

Bog‘lanishli nutq quyidagi xususiyatlarga ega:

voqealarni ketma-ketlikda bayon qilish;

gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik;

grammatik to‘g‘rilik;

fikrning aniqligi va ravonligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni shakllantirish maktab ta’limiga tayyorgarlikning muhim sharti hisoblanadi. Nutqi rivojlangan bola savollarga to‘liq javob beradi, hikoya tuza oladi, o‘z fikrini erkin ifodalaydi.

Psixologik jihatlar

Bolalar psixologiyasi manbasida 3-7 yoshda nutq va tasavvur faol rivojlanishi ta’kidlanadi (88-95-betlar)

Ertaklar bolalarda: Obrazli tafakkur;

Xotira;

Tasavvur;

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi (112-118-betlar).

Takroriy iboralar va obrazlilik bolaning eslab qolish va qayta hikoya qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Ertaklarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga ta’siri

Ertak – bolalar uchun eng qiziqarli va tushunarli janrdir. Unda obrazlilik, takroriy iboralar, sodda va ravon til mavjud bo‘ladi.

Maktabgacha pedagogika darsligida bolalarda monologik va dialogok nutqini shakillantirish usullari yoritilgan. (Sh.Shodmonova Maktabgacha pedagogika — 145-152-betlar (Nutq rivojlantirish metodlari) va 167-173-betlar (badiy adabiyot vositasida nutqni rivojlantirish))

Ertaklar orqali: lug‘at boyligi kengayadi;

yangi so‘z va iboralar o‘zlashtiriladi;

mantiqiy fikrlash rivojlanadi;

monologik va dialogik nutq shakllanadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida Po‘lat Mo‘min ijodi bolalar nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ertaklardan misollar: “Oltin bolta” bu ertakda bolalarda savol javob qilish madaniyati shakllanadi.

Ertaklar yordamida bog‘lanishli nutqni shakllantirish metodlari

Ilk qadam davlat o‘quv dasturida badiiy adabiyot bilan ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan (56-63-betlar, 70-74-betlar). Ular:

1. Ifodali o‘qib berish

Tarbiyachi ertakni ifodali tarzda o‘qib beradi. Bola to‘g‘ri talaffuz va nutq ohangini o‘zlashtiradi.

2. Qayta hikoya qildirish

Bolalar ertak mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta bayon qiladi. Bu izchil nutqni rivojlantiradi.

3. Rasm asosida hikoya tuzdirish

Ertak qahramonlari tasviri asosida mustaqil hikoya tuziladi.

4. Rolli o‘yinlar

Bolalar ertak qahramonlari rolini ijro etadi. Bu dialogik nutqni rivojlantiradi.

5. Ertakni davom ettirish

Bolalarga ertakning yangi yakunini o‘ylab topish vazifasi beriladi. Bu ijodiy fikrlash va mustaqil nutqni rivojlantiradi.

Amaliy tavsiyalar

Ertaklar yosh xususiyatiga mos tanlanishi kerak;

Matn qisqa va tushunarli bo‘lishi lozim;

Savol-javob usulidan faol foydalanish zarur;

Bolalarga mustaqil fikr bildirish imkoniyati berilishi kerak;

Ertak sahnalashtirish mashg‘ulotlari muntazam tashkil etilishi lozim.

Ertaklar asosida bolalar bog‘lanishli nutqini rivojlantirishning ilmiy-metodik tahlili

1. ”Bo‘g‘irsoq” xalq ertagi misolida

“Bo‘g‘irsoq” ertagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sodda, takroriy va obrazli tilga ega bo‘lgani sababli nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu ertak misolida bolaning nutqiy rivojlanishiga ta’siri:

- Ertakdagi takroriy jumlalar, masalan “Men sendan qochiq ketdim...” bolalarning xotirasini mustahkamlaydi;

- Ertak qahramonlari ketma-ket uchrashi esa voqealar izchilligini anglashga yordam beradi;
- Ertakdagi dialoglar orqali bolalarda dialogik nutq shakilladi.

Metodik jihatdan ushbu ertakni rolli uyin sifatida sahnalashtirish bolalarning ifodachan nutqiniva to‘g‘ri talaffuzini rivojlantiradi.

2. “Zumrat va Qimmat” xalq ertagi misolida

“Zumrad va Qimmat” ertagi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalar bilan bir qatorda bog‘lanishli nutqini shakillantiradi. Ushbu ertak misolida bolaning nutqiy rivojlanishiga ta’siri:

- Ertakdagi qahramonlarni taqqoslash (yaxshi-yomon) orqali bolalarda muqoyasa asosida fikr yuritishni rivojlantiradi;
- Bolalar qahramonlarni tavsiflash jarayonida “mehribon”, “kamtar”, “sabrli”, “yalqov”, “ochko‘z” kabi sifat so‘zlaridan foydalanishni o‘rganadi va bolada so‘z boyligi oshadi;
- Voqealarning ketma-ketligi (uydagi munosabatlar-sinov-natija) monologik nutqini shakillantiradi;
- Xulosa chiqarish ya’ni “Nega Zumrad mukofotlandi?”, “Nima uchun Qimmat jazolandi?” kabi savollar orqali bola mustaqil fikr bildirishni o‘rganadi.

Ushbu ertak asosida “Qaysi qahramon senga yoqdi?, Nima uchun?” savoli orqali bolada izohli nutq shakillantiriladi.

3. “Qizil qalpoqcha” aka-uka Grim ertaklari.

“Qizil qalpoqcha” ertagi maktabgacha yoshdagi bolalarda sabab-oqibat munosobatlarini anglashga yordam beradi. Nutqiy ahamiyati:

- Bolalar voqealarni boshlanish-rivojlanish-yakun tartibida bayon qilishni o‘rganadi;
- Qahramonlarno xatti-harakatini tavsiflash orqali sifatlovchi so‘zlar qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi;
- Muammoli vaziyatni muhokama qilish bolaning mustaqil fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi;
- Savol-javob usuli orqali izohli va to‘liq javob berish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Bu ertak asosida “Agar sen qizil qalpoqcha o‘rnida bolganida nima qilar eding?” kabi savollar bolaning erkin va bog‘lanishli nutqini faollashtiradi.

4. “Bo‘ri va yetti echki bolasi” aka-uka Grim rtaklari.

“Bo‘ri va yetti echki bolasi” ertagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mazmuni sodda, takroriy va obrazli tilga ega bo‘lib, bog‘lanishli nutq shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ertakdagi dialoglar, takroriy iboralar va ketma-ket voqealar bolaning izchil fikr bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu ertak misolida bolaning nutqiy rivojlanishiga ta’siri:

- Takroriy konstruksiyalar: Bo‘rining eshik taqillatishi va ovozini o‘zgartirish kabi epizodlari hotirani mustahkamlaydi va matnni qayta aytishni osonlashtiradi;
- Sanash va ketma-ketlik: “Yetti” soni orqali sanash ko‘nikmasi va voqealar tartibini saqlash malakalari rivojlanadi;
- Dialogik nutq: Ona echki va bolalar o‘rtasidagi suhbatlar rollarga bo‘lib o‘qilganda ifodachanlik va to‘g‘ri talaffuz shakillanadi;
- Sabab-oqibat bog‘lanishi: “Nega bolalar eshikni ochmasligi kerak edi?” kabi savollar mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi;

- Emotsional nutq; Qo‘quv, xavf va qutqarilish holatlarini tasvirlash bolalarning hissiy lug‘atini boyitadi.

Ushbu ertak ayniqsa bolalarda emotsional va obrazli nutq rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ertak qahramonlarini ichki kechinmalari qo‘rquv, tushkunlik va quvonch holatlari bolalarda hissiy lug‘at zaxirasini kengaytiradi.

Yuqorida aytib o‘tigan ertaklarni tahlil qilinganimizda shuni ko‘rishimiz mumkinki, badiiy matinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadai. Ular

- Leksig zaxirani boyitadi;
- Gramatik tuzilishni mustahkamlaydi;
- Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;
- Monologik va diologik nutqini shakillantiradi;
- Emotsional-obrazli ifodalash qobiliyatini oshiradi.

Shu tariqa, ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni tabiiy va samarali ravishda shakillantiruvchi pedagogik vosita hisoblanadi. O‘zbek xalq ertaklari bor ekanda yo‘q ekan och ekanda to‘q ekan bo‘ri bakavul ekan so‘zlar bilan boshlanadi bolalarni nutqini rivojlantiradi. 3- 4 yoshdagi bolalr uchun ertaklar: “Oltin tarvuz “, “Dehqon bilan ayiq” ertaglari misol bo‘ladi.

Xulosa

Ertaklar — maktabgacha ta’lim muhitida bog‘lanishli nutqni shakllantirish uchun samarali vosita. Ular bolalarning lingvistik, sintaktik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, nutq madaniyatini oshiradi hamda pedagogik jarayonda ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida ertaklardan maqsadli, tizimli va metodik asosda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lev Vigotskiy — Tafakkur va nutq. 34-39, 92-101-betlar.
2. Sh.Shodmonova — Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. 145-152, 167-173- betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. 18-22, 28-30-betlar.
4. Bolalar psixologiyasi. 88-95, 112-118-betlar.
5. Ilk qadam davlat o ‘quv dasturi. 56-63, 70-74-betlar.
6. Xalq ertaklari va Aka-uka Grim ertaklari.
7. Nilufar, X. (2022). Qo‘qon xonligiga doir mashhur kishilarning laqablari xususida. Ta’lim fidoyilari, 15(1), 188-192.